

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT STANDARTI

**Turizm va yondosh xizmatlar. Sanatoriy-kurortda davolash.
Xizmatlarga doir talablar**

(ISO 21426:2018, IDT)

Rasmiy nashr

**O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi
O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi**

Toshkent

So‘z boshi

1 O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining “Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” Davlat unitar korxonasi tomonidan ISHLAB CHIQLDI va TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2 O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2022-yil 18-noyabrdagi 05-1481 - sonli qarori bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart ISO 21426:2018 «Tourism and related services. Medical spas. Service requirements» xalqaro standarti bilan aynan o‘xshash.

4 Standartga quyidagi tahririy o‘zgartishlar kiritilgan: “xalqaro standart” so‘zlari “ushbu standart” so‘zlariga almashtirilgan.

5 DASTLABKI JORIY ETILISHI

Ushbu standartni va uning o‘zgartishlarini O‘zbekiston hududida joriy etish qayta ko‘rib chiqish (o‘zgartirish) yoki bekor (amalini bekor qilish) qilish haqidagi axborot O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan nashr etiladigan axborot ko‘rsatkichda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga tegishli

Mundarija

	Kirish	IV
	So‘zboshi	V
1	Qo‘llanish doirasi	1
2	Normativ hujjatlarga havolalar	1
3	Atamalar va ta’riflar	1
4	Binolar va jihozlar	2
5	Xodimlar	4
6	Tabiiy resurslar	6
7	Texnik xizmat ko‘rsatish, gigiyena va tozalash	11
8	Xizmatlarni taqdim etish	15
9	Jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash	17
	A ilova (ma’lumot uchun)	
	Tabiiy shifobaxsh suvlarni tavsiflash bo‘yicha qo‘llanma (minimal qiymatlar)	20
	B ilova (ma’lumot uchun)	
	Tabiiy shifobaxsh suvlarning fizik-kimyoviy, kimyoviy va mikrobiologik tadqiqotlari	21
	C ilova (ma’lumot uchun)	
	Tabiiy shifobaxsh gazlarni baholash to‘g‘risida hisobotni tuzish bo‘yicha qo‘llanma	22
	D ilova (ma’lumot uchun)	
	Peloidlarni nazorat tahlil qilish va monitoring qilish bo‘yicha qo‘llanma	23
	Bibliografiya	25

Kirish

Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot (ISO) standartlashtirish bo‘yicha milliy tashkilotlarning (ISO a‘zo-qo‘mitalari) butunjahon federatsiyasi hisoblanadi. Odatda xalqaro standartlarni ishlab chiqish ISO texnik qo‘mitalari tomonidan amalga oshiriladi. Tuzilgan texnik qo‘mitaning faoliyatidan manfaatdor bo‘lgan har bir a‘zo-qo‘mita ushbu qo‘mitaga vakil bo‘lish huquqiga ega. ISO bilan aloqaga ega bo‘lgan xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari ham ishlarda ishtirok etadilar. Elektrotexnika sohasida standartlashtirishning barcha masalalari bo‘yicha ISO Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC) bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi.

Ushbu hujjatni ishlab chiqish va unga keyingi xizmat ko‘rsatish uchun foydalanilgan tartib-taomillar ISO/IEC Direktivalarining 1-qismida bayon etilgan. Jumladan ko‘rib chiqishning turli mezonlari ISO har xil turdagi hujjatlari uchun zarurligini qayd qilish lozim. Ushbu hujjat ISO/IEC Direktivalarining 2-qismidagi tahririy qoidalarga muvofiq tuzilgan (www.iso.org/directives ga qarang).

Ushbu hujjatning ayrim elementlari patent huquqlarining ob‘ekti bo‘lishi mumkinligini e‘tiborga olish lozim. ISO biror-bir yoki barcha bunday patent huquqlarini aniqlashga javobgarlik olmaydi. Hujjatni ishlab chiqishda aniqlangan biror-bir patent huquqlari to‘g‘risida batafsil axborot kirishda va/yoki ISONing ma‘lum qilingan patent deklaratsiyalari ro‘yxatida beriladi (www.iso.org/patents ga qarang).

Ushbu hujjatda foydalanilgan har qanday savdo markasi foydalanuvchilarning qulayligi uchun berilgan axborot hisoblanadi va ularni qo‘llab quvvatlamaydi.

Standartlarning ixtiyoriyligi, muvofiqlikni baholash bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus ISO atamalari va iboralarining ma‘nosi va ISONing Jahon Savdo Tashkilotining (JST) savdodagi texnik to‘siqlar (TBT) tamoyillariga sodiqligi haqida ma‘lumot olish uchun www.iso.org/iso/foreword.html ga qarang.

Ushbu hujjat ISO/TC 228, Tourism and related services texnik qo‘mitasi tomonidan tayyorlangan.

Ushbu hujjat bo‘yicha har qanday fikr-mulohaza yoki savollar foydalanuvchining milliy standartlashtirish organiga yo‘naltirilishi kerak. Ushbu organlarning to‘liq ro‘yxatini www.iso.org/members.html saytida topish mumkin.

So‘z boshi

Sog‘lomlashtirish turizmi xizmatlari dunyo bo‘ylab eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biridir. Garchi bu xizmatlar hozirgacha nisbatan o‘rganilmagan bo‘lsa-da, milliy turizm kengashlari, xususiy sektor va boshqa manfaatdor tomonlar sog‘lomlashtirish turizmini rivojlanish va maqsadni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega sektor sifatida ko‘rishadi.

Dunyo bo‘ylab ko‘plab odamlar shahar hayotidagi stress va shovqinlardan qochish yoki chet elda tibbiy yordam olish uchun sog‘lomlashtirish turizmi xizmatlarini tanlaydilar. So‘nggi yillarda bu raqamlar tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda, shuning uchun chalkashliklarni oldini olish va mijozlarning talablarini qanoatlantirish uchun taklif qilinishi mumkin bo‘lgan turli xil mahsulot va xizmatlarni aniqlash kerak.

Sog‘lomlashtirish turizmida tabiiy resurslardan foydalanishga kelsak, ham talassoterapiya markazlarida (ISO 17680), ham sog‘lomlashtirish markazlarida (ISO 17679) xizmatlar sifatiga minimal talablarni belgilaydigan ikkita standart allaqachon mavjud. Ular xususan, ularning har birida ishlatiladigan turli xil suv turlarini hisobga olgan holda, ushbu ikki turdagi markazlarning xususiyatlarini aks ettiradi.

Mukammallik uchun ushbu hujjatda davolash kurortlarining tabiiy shifobaxsh suvlari va sog‘liq uchun isbotlangan davolash-profilaktika foydalarini hisobga olgan holda xizmat ko‘rsatish sifatiga e‘tibor qaratiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT STANDARTI

Turizm va yondosh xizmatlar. Sanatoriy-kurortda davolash. Xizmatlarga doir talablar

Туризм и сопутствующие услуги. Санаторно-курортное лечение. Требования к услугам

Tourism and related services. Medical spas. Service requirements

Joriy etish sanasi: _____

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart tabiiy shifobaxsh suvlar (dengiz suvidan tashqari) va boshqa tabiiy resurslardan foydalanadigan sanatoriy-kurort muassasalarida sifatli xizmatlar ko‘rsatishga doir talablarni belgilaydi.

Ushbu standart tibbiy kasbga muvofiq bo‘lgan yechimlarga taalluqli emas.

Ushbu standart talassoterapiya markazlari yoki sog‘lomlashtiruvchi spa-kurortlarga taalluqli emas.

2 Normativ hujjatlarga havolalar

Ushbu standartda quyidagi normativ hujjatga havola qilingan:

ISO 7001 Graphical symbols. Public information symbols (Grafik belgilar. Ommaviy axborot belgilari)

3 Atamalar va ta’riflar

Ushbu standartda quyidagi atamalar tegishli ta’riflari bilan qo‘llanilgan:

3.1 balneologiya - ishlab chiqarishdan qo‘llashgacha bo‘lgan tabiiy vositalardan (masalan, klimatoterapiya, gidroterapiya) terapevtik foydalanishni o‘rganish.

Izoh - Bu sanatoriy-kurortni rejalashtirish, rivojlantirish, ishlatish va tibbiy jihatlar uchun umumiy atama.

3.2 parvarishlash hududi - sog‘lomlashtirish muolajalari o‘tkazish uchun ajratilgan hudud.

3.3 iqlim - bir necha yillar mobaynida o‘rtacha miqdori hisoblangan mintaqaning bir yil davomidagi umumiy yoki tashkil etadigan ob-havo sharoiti.

Izoh - Ob-havo sharoitlariga harorat, atmosfera bosimi, namlik, yog‘ingarchilik, quyosh nuri, bulutlilik va shamol kiradi.

3.4 quruq hudud - parvarish zonasidagi suv ishlatilmaydigan joy.

Izoh – Ko‘zdan kechirish xonalari, sport zallari va dam olish joylari quruq hudud hisoblanadi.

3.5 sanatoriy-kurort - shifokor tomonidan taqdim etilgan, tabiiy shifobaxsh suvlar va sog‘lomlashtirish muolajalarida ishlatiladigan shifobaxsh gazlar yoki peloidlar kabi boshqa maxsus tabiiy resurslarga ega bo‘lgan, yuridik jihatdan tan olingan tibbiy nazorat ostidagi davolash muassasasi.

Izohlar

1. Ba’zi mamlakatlarda “sanatoriy-kurort” atamasi alohida tan olingan va tartibga solingan.

2. Sanatoriy-kurortlarning suvlari, ham oqimlarning paydo bo‘lishi yoki kelib chiqishiga, ham suvning kimyoviy sifatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan inson faoliyatining yer yuzasiga salbiy ta’sirini oldini olish uchun 19-asrdan beri himoyalaniib kelinadi.

3.6 shifobaxsh mineral suv - shifobaxsh ta’siri isbotlangan tabiiy yoki sun’iy kelib chiqqan mineral suv.

Izohlar

1. Shifobaxsh suvlar ayrim mamlakatlarda dori vositalari sifatida tasniflanadi.

2. Mineral shifobaxsh suvda, masalan natriy xlorid, natriy sulfat yoki magniy sulfat mavjud.

3.7 mineral suv - artesian, o‘zi oqishi yoki burg‘ulash yo‘li bilan qazib olingan, sanatoriy-kurortda davolash maqsadlarida ishlatiladigan o‘ziga xos minerallashuvga ega bo‘lgan tabiiy buloq suvi.

Izoh – Ba’zi mamlakatlarda mineral suvlar mineral suvlar deb hisoblanishi uchun minerallasuv tarkibini belgilovchi qonunchilik bilan tartibga solinadi.

3.8 tabiiy shifobaxsh gazlar - tibbiy bilim va balneologik tajribaga asoslangan, buloq suvida erigan yoki toza gaz manbalaridan ko‘tariladigan gazlar.

Izoh - Oltingugurt gazlari, radon, CO₂ (masalan, mofetlardan) shifobaxsh gazlarga misol bo‘la oladi.

3.9 tabiiy shifobaxsh suv - mahalliy joyda ishlatiladigan mineral shifobaxsh suv (buloq yaqinida olinadi va qo‘llaniladi).

Izoh - Termal suvlar, mineral suvlar va gazlangan suvlar tabiiy shifobaxsh suvlar hisoblanadi.

3.10 tabiiy resurslar - peloidlar yoki davolash uchun ishlatiladigan boshqa tabiiy vositalar kabi elementlar va xom ashyolar.

3.11 peloid - geologik va/yoki biologik jarayonlar natijasida olingan, yoki tabiatan (tabiiy peloid) yoki oddiy jarayonda maydalash natijasida mayda donali konsistensiyaga ega bo‘lgan noorganik yoki organik aralashma.

Izohlar

1. Peloidlarning har xil turlari haqida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun 1-jadvalga qarang.

2. Loy va torf davolash maqsadlarida ishlatiladigan ikki turdagi tabiiy peloid hisoblanadi.

3. Peloidlar tarkibida suv bo‘lishi mumkin, ammo quruq holda ham mavjud bo‘lishi mumkin.

3.12 termal suv - chiqish joyidagi harorati ushbu suvning o‘rtacha haroratidan 4 ° C ga yuqori bo‘lgan suv.

3.13 muolaja xonasi - odatda davolash hududida joylashgan, muolajalar o‘tkaziladigan alohida xona.

3.14 nam hudud - parvarishlash hududida joylashgan suv, peloidlar va gaz vannalaridan foydalaniladigan hudud.

Izoh – Davolash dushlari, vannalar, o‘rab-chirmash va basseynlar nam hudud hisoblanadi.

4 Binolar va jihozlar

4.1 Umumiy talablar

Barcha binolar va jihozlar ishga yaroqli holatda saqlanishi va ushlab turilishi kerak. Jihozlardan, ayniqsa elektr jihozlaridan foydalanishda xavfsizlik jihatlari va tegishli standartlarga muvofiqligi hisobga olinishi kerak.

Xonalar va jihozlar ham toza va dezinfektsiyalangan, yaxshi ventilyatsiya, yorug'lik va haroratga ega bo'lgan hamda to'siqsiz bo'lishi kerak.

Sanatoriy-kurortda xodimlar uchun sanuzel va kiyim almashtirish xonalari bo'lishi kerak.

Imkoniyati cheklangan mijozlar uchun tegishli kirish joyi va qulayliklar ta'minlanishini ko'rib chiqish kerak.

Izoh. Foydalanish imkoniyati haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun ISO 21542 ga qarang.

4.2 Qabulxona

Sanatoriy-kurortda qabulxona (resepshn) bo'lishi kerak. Qabulxona quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- davolash kurortining sig'imiga mos ravishda alohida hududda joylashgan va ko'rsatkichlar bilan belgilangan bo'lishi kerak;
- xizmatlar ro'yxati va narxlar mavjud bo'lishi kerak;
- mijozlarni ro'yxatga olishning turli usullari bo'lishi kerak;
- qabul qilingan to'lov usullari aks ettirilishi kerak;
- muolaja xonasining hech bo'lmaganda ish vaqti davomida qabulxona xizmati ta'minlanishi kerak.

Elektron ro'yxatga olish imkoniyatini ko'rib chiqish kerak.

4.3 Kiyim almashtirish xonasi va sanuzel

Sanatoriy-kurortda kiyim almashtirish xonasi va sanuzel bo'lishi kerak. Ushbu hudud quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- gigiena qoidalariga ko'ra, kiyim almashtirish xonalariga qabulxonadan (resepshndan) kirish va parvarishlash hududiga chiqish ta'minlanishi kerak;
- pol va devorlar yuviladigan, sirpanmaydigan va g'ovak bo'lmagan materiallar bilan qoplangan bo'lishi kerak;
- kiyim almashtirish xonalari dush, hojatxona va sanuzellar yaqinida joylashgan bo'lishi kerak.

Kiyim almastirish xonalari nogironlarning kirishini ta'minlash uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

4.4 Tibbiyot xonasi

Mijozlarga ularning iltimosiga binoan yoki kerak bo'lganda, masalan, favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatish uchun tibbiyot xonasi nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Mijozlarni oshkor qilmaslik kafolatlanadi.

Tibbiyot xonasi yonida mijozlar uchun yetarli joyli kutish zali bo'lishi kerak. Tig'iz paytda qabul qilishni oldindan yozib qo'yish mexanizmi bo'lishi kerak.

Tibbiyot xonasi yaqinida hojatxona va sanitariya xonalari bo'lishi kerak.

4.5 Parvarishlash hududi

4.5.1 Umumiy talablar

Parvarishlash hududi quruq hudud va nam hududni o'z ichiga oladi, ular ajratilgan bo'lishi kerak.

Bir xonada yoki qo'shni xonalarda yechinish, parvarish qilish va kiyinishni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Parvarishlash hududi quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi kerak:

- harorat 18 ° C dan past bo'lmasligi kerak;
- tabiiy bo'lmagan yorug'lik bo'lsa, yorug'lik suv yuzasidagi aksni kamaytirish uchun to'g'ridan-to'g'ri bo'lmasligi kerak.
- mijozlarni tekshirish va suv bilan davolash muolajalarini o'tkazishda foydalaniladigan, sanatoriy-kurort ixtisosligi bilan bog'liq zarur asboblarga to'plami bo'lishi kerak;
- favqulodda qo'ng'iroqlar uchun telefon raqamlari mavjud bo'lishi kerak.
- muolaja xonalarida qo'l yuvish va dezinfeksiyalash vositalari bo'lishi kerak;
- klinik materiallar (masalan, avtomatlashtirilgan yoki yarim avtomatik defibrillyator) va muhim asosiy dori-darmonlarni o'z ichiga olgan dori qutisi bo'lishi kerak. U o'qitilgan xodimlar olishi uchun oson bo'lishi kerak.

4.5.2 Quruq hudud

Quruq hududlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- isitiladigan dam olish joyi quruq hududda joylashgan bo'lishi kerak. U parvarishlash kabinalari yaqinida mijozlar davolanish muolajalaridan so'ng dam olishlari uchun divanlar yoki krovatlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak;
- harorat foydalanishga qarab 18°C dan 25°C gacha saqlab turilishi kerak;
- barcha jihozlar yuviladigan va oson dezinfeksiya qilinadigan materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerak.

Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun xona bo'lishi kerak.

4.5.3 Nam hududlar

Xavfsizlik nuqtai nazaridan, nam hududlar, ayniqsa basseymlar va purkovchi dushlarning atrofi va ichi tutqichlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Yer va pol yuzalari sirpanmaydigan bo'lishi kerak, shuningdek silliq bo'lmagan gilamlar, yog'och pollar, yog'och taxtalar yoki boshqa shunga o'xshash materiallardan foydalanmaslik kerak, sirpanishning oldini olish uchun ishlov berilgan yog'och bundan mustasno.

Basseymlar yopiq joyda yoki ochiq havoda joylashgan bo'lishi mumkin va davolovchi bo'lishi yoki terapevtik bo'lmasligi mumkin.

Davolash uchun ishlatiladigan barcha basseymlarda termal yoki mineral suv bo'lishi kerak.

Barcha holatlarda basseymlar sanatoriy-kurort tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga moslashtirilgan bo'lishi va teskari gidravlika (pastdan suv olish va yer yuzasiga tushirish) tamoyili bo'yicha ishlashi kerak.

Sanatoriy-kurortda dam olish basseymlari ham mavjud bo'lsa, bu aniq ko'rsatilishi kerak.

Har safar mijozlar terapiya basseymlaridan foydalanganda, mas'ul xodimlar bor bo'lishi kerak.

Basseynga kirishda issiq va sovuq suvli dush bo'lishi kerak.

Maksimal suv balandligi 1,40 m bo'lishi kerak yoki chuqurroq bo'lsa, gidroterapiyadan o'tayotgan mijozlarni professional tekshiruvdan o'tkazish kerak. Suvning chuqurligi va haroratini ko'rsatadigan ma'lumot taxtachasi bo'lishi kerak. Suzish basseymlari zonalarida mijozlar uchun xavfsizlik va profilaktika choralari haqida barcha kerakli ma'lumotlarni ko'rsatishi kerak. Ma'lumot mijoz tushunadigan tarzda, masalan, grafik belgilar yordamida aks ettirilishi kerak.

Basseymlarda imkoniyati cheklangan insonlar joylashishi uchun panduslar yoki zinapoyalar bo'lishi kerak.

4.6 Oqava suvlarni tozalash uskunalari

Sanatoriy-kurortda oqava suvlarni tozalash uchun maxsus jihozlar bo‘lishi kerak.

Oqava suvlarni qayta ishlatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tozalangan oqava suvlar atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga muvofiq yo‘q qilinishi kerak.

5 Xodimlar

5.1 Umumiy talablar

Sanatoriy-kurort xodimlari identifikatsiya qilingan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, mijozlar bilan aloqada bo‘ladigan xodimlarning nomi identifikatsiya qilinishi kerak.

Xodimlar sanatoriy-kurort tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarni bilishi kerak.

Mijozlarning turini va sanatoriy-kurortning ixtisosligini hisobga olgan holda, yuqori rahbariyat odatda mijozlar bilan muloqotda bo‘ladigan xodimlarning profilini aniqlashi kerak. Alohida topshiriqlar malakali va akkreditatsiyadan o‘tgan xodimlar tomonidan ishlab chiqilishi kerak.

Sanatoriy-kurort kamida quyidagi lavozimlar uchun mas’ul shaxslarni aniqlashi kerak:

- bosh ma’mur;
- tibbiy menejer;
- parvarishlash hududining boshqa xodimlari;
- xizmat ko‘rsatish;
- menejer yordamchisi;
- bron qilish;
- sotish;
- boshqa xizmat ko‘rsatish xodimlari (masalan, kir yuvish, tozalash, xarid qilish).

Yuqori rahbariyat barcha xodimlar o‘z faoliyat sohaslarida mijozlarning qanoatlanish darajasi to‘g‘risida doimo xabardor bo‘lishlari uchun ichki aloqa tizimini yaratishi kerak. Ushbu tizim xodimlar takliflarining tahlilini ta’minlashi kerak.

Yangi xodimni yollash o‘quv davrini o‘z ichiga oladi. Ushbu faoliyatni engillashtirish uchun tashkilot sanatoriy-kurortda davolanishning asosiy jihatlarini tushuntiruvchi hujjatga ega bo‘lishi kerak.

Sanatoriy-kurort masalan, gigiyena va xavfsizlik masalalari, axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmalari, sanatoriy-kurortda keng ko‘lamda ishlatiladigan mahsulotlar bilan ishlash, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ilg‘or tajriba, xushmuomalalik qoidalari, umumiy qo‘llaniladigan chet tillari, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakatlanish va evakuatsiya rejasini (har ikkala holatda ham imkoniyati cheklangan mijozlarni hisobga olgan holda) o‘z ichiga olgan xodimlarni o‘qitishning yillik dasturini ishlab chiqishi kerak.

Ushbu o‘quv dasturi favqulodda vaziyatlarda harakat qilish (masalan, birinchi yordam ko‘rsatish, favqulodda vaziyatlar va evakuatsiyada harakat qilish rejasini tuzish) va hayotni ta’minlash asoslari bo‘yicha ta’limni o‘z ichiga olishi kerak.

Barcha xodimlar kasallik tashuvchisi emasligiga ishonch hosil qilish uchun davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari kerak.

5.2 Parvarishlash hududi xodimlari

Sanatoriy-kurortda barcha davolash tadbirlarini nazorat qiluvchi, tibbiy ta’limga ega direktor, afzalrog‘i sanatoriy-kurort bo‘yicha mutaxassis, bo‘lishi kerak.

Sanatoriy-kurortda tibbiyot shifokori bo‘lishi kerak.

Malakali xodimlar, jumladan, fizioterapevt, gidroterapevt, gigiyena bo‘yicha mutaxassis, hamshira, ovqatlanish bo‘yicha mutaxassis/dietolog va sofrolog (psixolog), shuningdek balneologiya yoki tegishli davolanish turlari bo‘yicha tibbiy mutaxassislar mavjud bo‘lishi kerak.

Fizioterapiya sohasida qayta tayyorlash shifokor yoki fizioterapevt tomonidan amalga oshiriladi.

Parvarishlash hududiga jalb qilingan barcha xodimlar tibbiy shoshilinch vaziyatlarda harakat qilish rejasidan xabardor bo‘lishi kerak.

5.3 Texnik xodimlar

Sanatoriy-kurortda texnik xizmat ko‘rsatish, shu jumladan suvni tozalash operatsiyalarini bajarish uchun malakali xodimlar jalb qilinishi kerak. Texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha operatsiyalar malakali professional muhandis yoki texnik tomonidan nazorat qilinishi kerak.

Har qanday nosozlik aniqlanganda, texnik xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar tegishli choralarni ko‘rishlari kerak.

Har qanday texnik muammoni baholash uchun har doim mas‘ul navbatchi bo‘lishi kerak.

6 Tabiiy resurslar

6.1 Umumiy talablar

Inson farovonligi uchun bir nechta manbalardan tabiiy resurslardan foydalanish yillar davomida ko‘plab kasalliklar vaqtida erishilgan ijobiy ta’sirlar tajribasiga asoslanadi. Ushbu ijobiy ta’sirlar vaqt davri mobaynida shifobaxsh kurortlarda kuzatilgan va zamonaviy tibbiyot yutuqlari (jumladan, balneologiya va kurortlar sohasidagi tadqiqotlar) bilan ham obyektiv ravishda o‘lchanishi mumkin.

Ushbu hujjat uchun tegishli tabiiy resurslar quyidagilardir:

a) tabiiy shifobaxsh suvlar:

- mineral suvlar;

- termal suvlar;

- gazli suvlar;

b) shifobaxsh gazlar;

c) peloidlar.

Sanatoriy-kurort foydalaniladigan tabiiy resurslar va o‘zining tabiiy shifobaxsh suvlarining xususiyatlariga ko‘ra qanday muolajalar taklif qilinishini aniqlashi va mijozlarga yetkazishi kerak.

Barcha sanatoriy-kurortlar shifobaxsh suvlarga asoslangan muolajalarni taklif qilishlari kerak, ammo peloidlar va shifobaxsh gazlar bilan davolash ixtiyoriydir.

Izoh. Iqlimni davolashning bir qismi sifatida ko‘rib chiqish mumkin bo‘lsa-da, uni nazorat qilish qiyinligi sababli ushbu hujjat iqlimga oid talablarni o‘z ichiga olmaydi.

6.2 Tabiiy shifobaxsh suvlar

6.2.1 Mineral va termal buloqlar

6.2.1.1 Mineral buloqlarni muhofaza qilish hududi

Mineral buloqlar atrofidagi hududlar ham sifat, ham miqdoriy jihatdan alohida muhofaza qilinishi kerak. Sanatoriy-kurort ushbu hududlarni muhofaza qilishning sifat va miqdoriy mezonlarini hujjatlashtirishi kerak.

a) sifatni muhofaza qilish

Sifatni muhofaza qilishning maqsadi ifloslanishning oldini olishdir. Muhofaza hududining uchta toifasi qo'llaniladi:

- I muhofaza hududi: qazib olish joyining yaqin atrofini muhofaza qilish;
- II muhofaza hududi: avariya ifloslanishdan, shu jumladan mikrobiologik ifloslanishdan muhofaza qilish (zarur bo'lganda muddat 50 kun);
- III muhofaza hududi: suv havzasining qolgan qismini umumiy muhofaza qilish.

b) miqdoriy muhofaza qilish

Miqdoriy muhofaza qilish, asosan tabiiy shifobaxsh suvning gidrodinamikasiga aralashish bilan bog'liq. U tabiiy shifobaxsh suvning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek qazib olish joyida uning oqimi va ko'pligini himoya qilish uchun mo'ljallangan.

6.2.1.2 Suv manbalaridan foydalanish rejasi

Suv manbasidan foydalanish rejasi bo'lishi kerak va u kamida quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- a) buloqning geografik joylashuvi;
- b) hujjatning qisqacha mazmuni: ham tarixiy, ham huquqiy hujjatlar (avvalgi va hozirgi) tikilishi kerak:

- tarixiy ma'lumotnoma: sanatoriy-kurort o'z faoliyatini rivojlantirish to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatga ega bo'lishi kerak;

- huquqiy hujjatlar va foydalanishga ruxsatnomalar;

- buloqning hujjatda belgilangan tavsiflari: oqim tezligi, harorat, elektr o'tkazuvchanligi;

- buloqni moslashtirish bo'yicha ishlar: sanatoriy-kurort agar mavjud bo'lsa, suv havzasining muvofiqligi va yaxshilash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarni tasdiqlashi kerak;

- laboratoriya tahlili: sanatoriy-kurort har yili vakolatli laboratoriya tomonidan fizikaviy, kimyoviy va mikrobiologik to'liq tahlillarni o'tkazadi. Ushbu tahlil suvdagi minerallar miqdorini nazorat qilish uchun amalga oshiriladi. Yillik tahlil natijalari mijozning so'roviga binoan taqdim etilishi kerak.

c) mineral suvni miqdoriy va sifat jihatidan saqlab qolish uchun muhofaza hududini chegaralashni tadqiq qilish. Ushbu tadqiqot suvli qatlamlarning geologiyasi, gidrogeologiyasi, gidrokimyoviy va fizikaviy zaifligi bilan bog'liq jihatlarni o'z ichiga olishi kerak, masalan:

- geologik tadqiqot: tegishli masshtabdagi grafik ma'lumotlar bilan birgalikda butun muhofaza hududi qo'llaniladigan geologik karkasning tavsifi;

- gidrologik tadqiqotlar;

- buloqlarni ekspluatatsiya qilish tavsifi;

- vaziyat va tavsiflar;

- suv ta'minoti nuqtalari ro'yxati;

- buloqni tahlil qilish;

- nasos tizimi haqida texnik ma'lumotlar;

- suv yig'iladigan hovuz chuqurligi va nasos uskunasining joylashuvi: nasosda tortib chiqarish vazifasini bajarish va ekspluatatsiyaning kerakli hajmini aniqlash;

- suvli qatlamlarning xarakterli parametrlari;

- gidrokimyoviy tadqiqot: bu hollarda suvning mineral tarkibini, kislotalilik darajasini va mumkin bo'lgan ifloslanishni aniqlash uchun kimyoviy tahlil o'tkaziladi;

- fizik tadqiqot: izotop tahlili suvning kelish vaqtini aniqlash yoki ortiqcha yuklanish hududlarini baholash zarurati bo'lganda amalga oshiriladi;

- zaiflikni tadqiqot qilish: yuqoridagi tadqiqotda tuproqning o‘z-o‘zini tozalash qobiliyatini bilish uchun kelib chiqishi va xususiyatlari ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan potentsial ifloslantiruvchi faoliyatlar ro‘yxati, shuningdek kesib o‘tgan hududlarning zaifligini o‘rganish kerak.

A ilova tabiiy shifobaxsh suvlarning tavsifi, shuningdek ularning tarkibidagi tabiiy tebranishlarning monitoringi bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

6.2.2 Balneologik baholash va hisobot

Shifobaxsh va sog‘lomlashtirishga doir talablarga muayyan tabiiy shifobaxsh suvning muvofiqligi dalolatnomada tasdiqlanishi kerak.

Ushbu dalolatnoma bir necha usullar bilan, masalan malakali professional ekspert(lar), sanatoriy-kurortning tibbiy rahbari, universitet yoki rasman tan olingan balneologiya instituti tomonidan tayyorlanishi mumkin.

Sanatoriy-kurort dalolatnomani bir marta tayyorlaydi va tegishli tabiiy resursning xususiyatlari sezilarli darajada o‘zgarganda uni qayta ko‘rib chiqadi.

Dalolatnoma quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- a) umumiy ma’lumotlar (masalan, tahlil joyi, obyekti, davri);
- b) dalolatnoma tuzuvchining ismi va manzili;
- c) baholash uchun ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati;
- d) tahlil va har qanday nazorat tahlillari natijalarini baholash:
 - asosiy moddalar, ayniqsa faol moddalar va jismoniy sifatlar;
 - tabiiy vositalarni qo‘llashning gigiyenik-bakteriologik natijalarini tibbiy baholash;
- e) davolashda terapevtik foydalanish haqida ma’lumot (davolash tamoyiliga qarab);
- f) kasalliklarga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar;
- j) sanatoriy-kurort murojaat qilayotgan toifaning xulosasi va bahosi.

Ushbu dalolatnomada xuddi shu hudud yoki boshqa sanatoriy-kurort yeridagi empirik sinovlarga asoslangan tabiiy vositalarining qiyosiy bahosi ko‘rib chiqilishi kerak.

6.2.3 Tabiiy shifobaxsh suvlarning fizik, kimyoviy va mikrobiologik xossalari

Tabiiy shifobaxsh suvlar quyidagi sinovlar orqali toza gigiyenik va mikrobiologik holatda ekanligi isbotlanishi kerak:

- a) fizik va kimyoviy sinovlar;
- b) kimyoviy sinovlar;
- c) mikrobiologik sinovlar.

B ilova ushbu sinovlarning har birida tekshirilishi mumkin bo‘lgan bandlardan iborat qo‘llanmani o‘z ichiga oladi.

6.2.4 Tabiiy shifobaxsh suvlarning nazorat tahlili va monitoringi

6.2.4.1 Tabiiy shifobaxsh suvlarni tahlil qilish

Tahlil balneologik davolashni va shifobaxsh manbaning gidrogeologik va texnik holatini baholash uchun asos sifatida olinadi. Sanatoriy-kurort va shifobaxsh buloqli muassasalar har 10 yilda o‘zlarining shifobaxsh buloqlarini tahlil qilishlari kerak (mikrobiologik, kimyoviy va fizik tahlillar). Shifobaxsh buloqlar har 2 yilda bir marta mikrobiologik ifloslanish uchun tekshirilishi kerak.

Muntazam nazorat tahlillari monitoring jarayonining bir qismi hisoblanadi. Ular shifobaxsh buloqda va davolash joyida kimyoviy va gigiyenik sinovlar shaklida amalga oshiriladi. Ularni qo‘llash doirasi individual sharoitlarga qarab o‘zgaradi.

6.2.4.2 Nazorat tahlili va monitoringi

Fizikaviy va kimyoviy sinovlar o‘tkazilishi kerak; sanatoriy-kurortda foydalaniladigan suv yilda kamida bir marta suv oluvchi inshootga olinishi va tahlil qilinishi kerak. Umumiy gigiyena sinovlari muntazam monitoring jarayonining bir qismi

hisoblanadi. Foydalanish joyidagi suv namunalari yiliga kamida bir marta olinishi va tahlil qilinishi kerak.

Suvni doimiy chiqarishda mikrobiologik tadqiqotlar kamida 3 oyda bir marta, agar muntazam ishlatilmasa tez-tez amalga oshirilishi kerak.

Agar nazorat tahlili buloqda sezilarli o‘zgarishlarni aniqlasa, sabablari tadqiqot qilinishi va yangi etalon tahlili o‘tkazilishi kerak. Bu agar buloq yaqinda ochilgan bo‘lsa ham o‘tkazilishi kerak.

6.3 Tabiiy shifobaxsh gazlar

6.3.1 Umumiy qoidalar

Karbonat angidrid gazi, radon va vodorod sulfidi hozirgi vaqtda davolash maqsadida ishlatiladigan shifobaxsh gazlardir.

Karbonat angidrid gazi quruq holatda (mofet) yoki shifobaxsh suvlarda ajralib chiqishi mumkin, sun‘iy ravishda qazib chiqarilishi yoki karbonat angidrid gaziga boy shifobaxsh suvlardan olinishi mumkin. Terining kapillyarlariga kengaytiruvchi ta‘siri tufayli CO₂ gazi vannalari asosan yurak-qon tomir kasalliklari uchun ishlatiladi. Ba‘zida CO₂ teri ostiga inyeksiya uchun ishlatiladi.

Radon hamma joyda keng tarqalgan asl gazdir. Balneologik davolashda, bu alfa nur chiqaradigan mahsulot, masalan tarkibida radon bo‘lgan vannalar shaklida yoki ingalyatsiya va ichga qabul qilish uchun qo‘llaniladi.

Vodorod sulfidi tabiiy shifobaxsh suvlarning tarkibiga kiradi. U asosan revmatik/degenerativ simptomlar, shuningdek teri kasalliklari uchun terapevtik maqsadlarda qo‘llaniladi.

6.3.2 Tabiiy shifobaxsh gazlarni baholash va ularning hisoboti

Gazlarning terapiyada foydalanishga yaroqliligi hisobotda isbotlanishi kerak. Ushbu hisobot malakali professional ekspert(lar), sanatoriy-kurortning tibbiy rahbari, universitet yoki rasman tan olingan davolash balneologiya instituti kabi bir qancha usullar bilan tayyorlanishi mumkin.

Shifobaxsh gazni tahlil qilish gaz tarkibini o‘rganadi va balneologik tozalashni, shuningdek, geologik va texnik sharoitlarni baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shifobaxsh gazlari to‘g‘risida tahlil va hisobotga doir minimal talablar quyidagilardan iborat:

a) umumiy ma‘lumotlar (masalan, shifobaxsh gazni tahlil qilish maqsadi, tahlil turi, sanasi, qazib olish joyi);

b) organoleptik tadqiqot;

c) gaz harorati;

d) kimyoviy sinovlar.

C ilovasida ushbu joylashuvni nazorat qiluvchi vakillar bilan yo‘riqnoma mavjud.

6.3.3 Tabiiy shifobaxsh gazlarning nazorat tahlili va monitoringi

Asosiy faol moddalar har 2 yilda bir marta nazorat tahlilida aniqlanadi.

Shifobaxsh gazni tahlil qilish kamida 10 yilda bir marta o‘tkazilishi kerak.

6.4 Tabiiy peloidlar

6.4.1 Umumiy talablar

Peloidlarni 1-jadvalga ko‘ra tasniflash mumkin.

1-jadval - Peloidlarning turlari

Peloidlarning turlari	Geologik-genetik guruh
Yumshoq jinslar (EI peloidlari)	
Torf (yuqori torf, past torf, botqoqlik)	O‘tirgan peloidlar
“Lebermud”, torf loylari, diatomli tuproq	Limnik peloidlar
Dengiz loyi (sho‘r suv loyi), sapropel, ko‘rfaz	Dengiz peloidlari
Loyga o‘xshash shishuvchi cho‘kindilar (sulfid loylari, oltingugurt loylari, oxra loylari)	Krenogen peloidlar
Daryo loyi	Daryo peloidlari
Less	Eol peloidlari
Qumog‘ tuproq, loy	Pedogen peloidlar
Tufitning ^a mustahkamlanishi	Vulkanogen peloidlar
Mustahkamlashgan jinslar (parapeloidlar)	
Loyli tosh ^a , loyli slanets ^a	Loy toshli peloidlar
Mergel, bo‘r, ohak, dolomit	Ohaktosh peloidlari
Tuf ^a , fonolit	Vulqonli peloidlar
^a Ko‘pincha balneologik davolashda “fango” deb ataladi.	

6.4.2 Peloidlarni qazib chiqarish va saqlash

Peloidlar, ularning tarkibi o‘zgarmaydigan tarzda qazib chiqarilishi va saqlanishi kerak. Ular mukammal gigiyenik holatda bo‘lishi kerak.

Tabiiy konlarni himoya qilish uchun cho‘milish uchun allaqachon ishlatilgan peloidlar, agar ular gigieynik sharoitlarni kafolatlasa, saqlanganidan keyin qayta ishlatilishi mumkin.

Agar torfni aralashtirish kerak bo‘lsa, yangi o‘ramlar va cho‘milish muolajasi uchun yangi torf va ishlatilgan torfni teng miqdorda aralashtirish kerak.

Har bir alohida qo‘llash uchun yaxshilab aralashtirish ta‘minlanishi kerak. Turli odamlar uchun bitta davolash vannasidan foydalanish mumkin emas. Bundan tashqari, noorganik peloidlar yoki cho‘kindilarni milliy qoidalarda ruxsat etilmasa, qayta ishlatmaslik kerak.

Mijozlar so‘rovi bo‘yicha tashkilot foydalanadigan materiallarning sifati to‘g‘risida xabardor qilinishi kerak.

Torf kamida 5 yil davomida dastlabki konda yoki maxsus regeneratsiya hovuzida saqlanishi kerak.

6.4.3 Peloidlarni baholash va hisobot

Agar peloidlar ishlatilsa, ularning sifatini ta‘minlash uchun tahlil qilish kerak.

Peloidlarni tahlil qilish uning tarkibi haqida tushuncha beradi va undan balneologik foydalanish va konda mavjud sharoitlarni baholash uchun asos bo‘ladi.

Peloidlarni tahlil qilish quyidagi tavsiflarni o‘z ichiga olishi kerak:

a) umumiy ma‘lumot: tahlilni o‘tkazgan sog‘liqni saqlash organi yoki malakali ekspertning nomi va manzili, namuna olish va mahalliy sinov sanasi, namuna olingan kundagi ob-havo va havo harorati, Pa atmosfera bosimi, nisbiy namlik foizda, oldingi ob-havo sharoitlari to‘g‘risida ma‘lumot (masalan, peloid konida namlik sharoitlarini baholash uchun);

b) loy konining qisqacha geografik-geologik tavsifi (tuzilishi va o‘lchamlari) namuna olish joyining aniq tavsifi (sharqiy, shimoliy, dengiz sathidan balandlik) va aniq sirt rejasi, kon atrofi tavsifi, shu jumladan mumkin bo‘lgan antropogen ta’sirlar, kongra

ta’siri, yer usti o‘simliklari, peloid aniqlanishi (ya’ni balandlikdagi torf yoki past tekislikdagi torf; tufitning mustahkamlanishi);

c) gidrologik ma’lumotlar (ya’ni buloqlarning mavjudligi, namuna olish vaqtidagi suv sathi, drenaj koeffitsienti); namuna olish turi (masalan, belkurak, burg‘ulash zondi, ekskavator bilan yer qazish);

d) yer ostidagi qazish chuqurligi, aralash yoki alohida namunalar olish, kon tarkibi miqdori, qalinligi, qatlam tuzilishi va namuna olish joyidagi yer osti tarkibi, qishloq xo‘jaligi faoliyati, qishloq joylarini muhofaza qilish, mulk huquqi; peloidlardan foydalanish va utilizatsiya qilish texnologiyasi tavsifi (qazib olish, tashish, vaqtincha saqlash, qayta ishlash, eksport qilish, saqlash uchun topshirish);

e) loy konidan oldingi foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Ushbu tahlil natijalari hisobot shaklida taqdim etilishi kerak.

6.4.4 Peloidlarning nazorat tahlili va monitoring

Peloidlar tahlili peloidlarning tarkibini aniqlaydi va balneologik davolashni, shuningdek geologik-texnik sharoitlarni baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Peloid tahliliga qo‘yiladigan minimal talablar quyidagilardan iborat:

a) jismoniy sinovlar;

b) mikrobiologik sinovlar;

c) tavsifi.

D ilova ushbu elementlarga nisbatan tekshirilishi mumkin bo‘lgan elementlardan iborat qo‘llanmani o‘z ichiga oladi.

7 Texnik xizmat ko‘rsatish, gigiyena va tozalash

7.1 Umumiy talablar

Sanatoriy-kurortda ichki va tashqi binolar va jihozlar toza va gigiyenik holatda, jumladan kerak bo‘lganda dezinfeksiya va texnik xizmat ko‘rsatish yaxshi holatda bo‘lishini ta’minlash uchun tizim mavjud bo‘lishi kerak.

Ushbu tizim hujjatlashtirilishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi va kamida quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- uskunalar;

- amalga oshiriladigan harakatlar;

- monitoring.

7.2 Xizmat ko‘rsatish

7.2.1 Profilaktik xizmat ko‘rsatish rejasi

Mijozlar va xodimlar uchun tegishli darajadagi xavfsizlik kafolatlanishi kerak. Shu maqsadda sanatoriy-kurort profilaktik ta’mirlash rejasini ishlab chiqadi, unda obyektlarning yaxshi holati va to‘g‘ri ishlashi va ularning elementlarini almashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan kamida barcha inspeksiyalar/tekshiruvlar, xususan quyidagilarga e’tibor qaratilishi kerak:

a) liftlar;

b) konditsiyalash, isitish va quritish tizimlari;

c) ichki xonalar;

d) ochiq obyektlar;

e) elektr jihozlari, rozetkalar va ko‘rinadigan simlar.

Texnik xizmat ko‘rsatish uchun mas’ul shaxsning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- inspeksiyalar va tekshiruvlar rejalari;

- texnik xizmat ko‘rsatish vazifalari to‘g‘ri bajarilganligini tekshirish;

- uskuna va jihozlarni davriy (kamida yiliga bir marta) tekshirish. Ushbu tekshirish uskuna va jihozlarning yaxshi holati va ishlashini ta’minlashi kerak;

- iste’molchilar tomonidan qo‘llaniladigan, foydalanish aniq bo‘lmagan barcha qurilmalar uchun asosiy ko‘rsatmalarni eng ko‘p ishlatiladigan tillarda yoki ISO 7001 ga mos keladigan belgilar yordamida ko‘rsatish;

- topshiriqlarni, inspeksiyalarni va boshqa tekshirish tadbirlarini ro‘yxatga olish.

Texnik xizmat ko‘rsatish mijozga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan har qanday nosozlikni bartaraf etish uchun materiallar zaxirasiga ega bo‘lishi kerak.

7.2.2 Favqulodda vaziyatlar rejasi va evakuatsiya rejasi

Sanatoriy-kurortda favqulodda vaziyat rejasi va evakuatsiya rejasi bo‘lishi kerak. Ushbu munosabatda:

